



TAQIYIDDIN MUHAMMAD BIN MUHAMMAD AVHADIYNING “ARAFOT
UL-OSHIQIN” ASARI: MANBASHUNOSLIK, BADIY VA TARIXIY AHAMIYATI

Tuychiyeva Oydin Sayfullayevna

Oriental universiteti O'zbek va sharq tillari

kafedrası dotsenti. oydin_s@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada forsiyzabon adabiyot tarixida muhim o‘rin tutuvchi “Arafot ul-oshiqin” tazkirasi tahlil etiladi. Asar muallifi Taqiyiddin Muhammad ibn Muhammad Avhadiy XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida yashab ijod qilgan, Hindistonning Agra shahrida faoliyat yuritgan. Maqolada asarning tuzilishi, shoirlar soni va ularning tasnifi, ayol shoirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek, Avhadiyning tazkirada foydalangan manbalari haqida muhim ma’lumotlar beriladi. “Arafot ul-oshiqin” asarining tarixiy, adabiy va manbashunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Arafot ul-oshiqin”, tazkira, Bibi Otin, Oysha Samarqandiy, Robiya.

Abstract: This article analyzes the Persian biographical anthology Arafat al-'Ashiqin, a significant source in the history of Persian literature. Its author, Taqi al-Din Muhammad ibn Muhammad Avhadi, lived at the turn of the 16th–17th centuries and was active in Agra, India. The study explores the structure of the work, the number and classification of poets, information about female poets, and the sources Avhadi utilized. The article highlights the historical, literary, and scholarly significance of this tazkira.

Key words: “Arafot ul-oshiqin”, tazkira, Bibi Otin, Oysha Samarqandiy, Robiya.

Taqiyiddin Muhammad bin Muhammad Avhadiyning XVI asrga oid "عرفات العاشقين" nomli asari (hijriy - 1022-1024//milodiy - 1613-1615) ko‘pgina shoirlar zikri mukammal va keng yoritilgan tazkiralar sirasiga kiradi. Said Ali al-Dovud “Arafot ul-oshiqin” ning tuzilishi va muallifi haqida” deb nomlangan maqolasida yozilishicha, ushbu tazkira to‘la tadqiq qilinmagan, nashr etilmagan, uning nasta’liqda bitilgan yagona nusxasi Erondagi Malik kutubxonasida 5324 inventar raqami ostida saqlanadi. Bundan tashqari, tazkiraning yana uch nusxasi mavjud. Ular Hindistonning Devon kutubxonasida (313 inventar raqam), Asfiya kutubxonasida (609 invertar raqam) va Bongipur Milliy kutubxonasida (685 inventar raqam) saqlanadi. Biz mazkur tazkira haqidagi ma’lumotlarni Said Ali al- Dovudning maqolalariga hamda Ahmad Gulchin Ma’oniy va Said Ali Rizo Naqaviyning sharhlariga asoslangan holda keltiramiz. Tazkirada o‘tmish va mullif zamonasigacha bo‘lgan 3463 nafar forsiyzabon shoirlar sharhi alifbo tartibida 28 bo‘limga ajratilib, har biri “harf”ga ajratilgan. Harf uch qismga ega: birinchi qismda qadimgi shoirlar, ikkinchi qismda o‘rta davrda yashagan adiblar zikri (ya’ni bu yerda o‘zi yashagan davridan nazarda tutilgan),



uchinchi qismda esa zamonaviy shoirlarning sarguzashtlari keltiriladi¹⁴⁴. Shuningdek, muqaddimada yozuvchi o'zining nasabini ham qayd etadi.

Ahmad Gulchin Ma'oni "تاریخ تذکره های فارسی" ("Torixi tazkirahoyi forsi") tazkirasida 3300 nafar, Said Ali Rizo Naqaviy "تذکره نویسی فارسی در هند و پاکستان" ("Tazkiranavisiyi forsi dar Hindu Pokiston") asarida 3190 nafar va Said Ali al-Dovud esa qo'lyozmaga suyanganda holda 3463 nafar ijodkorning nomini tilga oladi. Said Ali qo'lyozma nusxasi bilan ishlagan paytida "ming afsuski, kutubxonadagi nusxada faqat ikki bo'lak "arse" saqlangan xalos, shu bois uchinchi bo'lakni ham hisobga olsak, "Arafot ul-oshiqin" da 3500 dan ziyod shoirlar zikri kelgan, bo'lishi kerak" deb taxmin qilgan.

Muallif ushbu tazkiradan oldin "Avhadiy xayolining jannati" asarini yozgan, unda faqatgina shoirlar she'ri berilgan. Bir kuni unga yoshi ulug' inson mazkur asarni to'ldirishni maslahat beradi va Taqiyiddin Muhammad bin Muhammad Avhadiy "Arafot ul-oshiqin"ni yaratib, uni shoirlar zikri bilan boyitadi. Muqaddimada u ushbu kitobni ikki yil davomida yaratgani va uni hech kimga sovg'a qilmasligini aytib o'tgan. Tazkira Rudakiy sharhi bilan boshlanadi. Taqiyiddin Muhammad bin Muhammad Avhadiy o'sha davrda Agrada yashaganligi bois asarda Hindiston shaharlarini ham tasvirlagan. Avhadiy tazkirani yaratish jarayonida "Lubob ul-albob", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirai shuaro", Jomiyning "Nafohat un-uns", Nizomiy Arusiyning "Chahor maqola", Faxriy Hiraviyning "Javohir ul-ajoyib" va "Tazkirat un-niso" asarlaridan foydalangan. Zamonasining shoirlari zikrini esa she'rxonlik kechalarida tanishgan adiblar hamda o'zi muloqotda bo'lgan qalam ahli tavsifi, tarixiy hikoyalar bilan boyitgan. Taqiyiddin Avhadiy so'zboshida o'zi haqida ma'lumot va Hindistonga safari u yerda "Arafot ul-oshiqin" ning yozilish sabablarini keltiradi. Bundan tashqari, asarda Rudakiy ijodiga alohida bo'lim bag'ishlangan. Yuqorida aytganimizdek, "Arafot ul-oshiqin" 28 bo'lim va har bir bo'lim 3 qismdan iborat. Birinchi bo'lim alif harfi bilan boshlanuvchi ismlar bo'lib, o'tmishdagi shoirlar zikriga bag'ishlangan. Unda 274 nafar shoir nomi kelgan bo'lib, zamondosh shoirlar qismida 139 nafar adib ijodiga sharh mavjud, jami 423 nafarni tashkil etadi. Ikkinchi bo'limning "ب" qismida 37 nafar ikkinchi qismida 51 nafar, uchinchi qismida 156 nafar, jami 245 nafar shoir faoliyati yoritilgan. Uchinchi bo'limning "ت" (birinchi) qismida 8 nafar, ikkinchi qismida 12 nafar va uchinchi qismida 22 nafar, jami 44 nafar shoir eslab o'tilgan. To'rtinchi bo'lim "ث" da birinchi qism mavjud emas, ikkinchi va uchinchi qismlarda 4 hamda 5 ijodkorlar tavsiflangan. Beshinchi bo'limning "ج" (birinchi) qismida 21 nafar, ikkinchi qismda 34 nafar va uchinchi qismda 59 nafar, jami 114 nafar shoir ijodi sharhlangan. "ح" bo'limida jami 170 nafar, "خ" bo'limida 88 nafar, "د" bo'limida 52 nafar, "ذ" bo'limida 11 nafar, "ر" bo'limida 114, "ز" bo'limida 40 nafar, "س" bo'limi 167 nafar, "ش" bo'limida 207 nafar, "ص" bo'limida 105, "ض" bo'limida 26 nafar, "ط" bo'limida 62 nafar, "ظ" bo'limida 3 nafar, "ع" bo'limida 411 nafar, "غ"

¹⁴⁴ احمد گلچین معانی، تاریخ تذکره های فارسی، ج ۲. تهران ۱۳۵۰ ش.ص. ۳۳-۳. Карафт: سید علی آل داود. عرفات العاشقین سیری در احوال و آثار مولف آن. نامه فرهنگستان ۱۳۷۴. ۳/۱. مقاله، ص ۳۴-۵۶



bo'limida, 57 nafar, “ف” bo'limida 148 nafar, “ق” bo'limida 21 nafar, “ك” harfida 25 nafar, “م” bo'limida 435, “ن” bo'limida 206 nafar, “و” bo'limida 71 nafar, “ه” bo'limida 46 nafar, “ى” bo'limida 53 nafar shoiru ulamolar zikri kelgan, “ل” harfida esa ma'lumot mavjud emas. Shu tariqa, hikoyalarga boyitilgan holda hamda 80000 mingga yaqin baytlar¹⁴⁵ bilan jami 3463 nafar adib ijodi ulug'langan¹⁴⁶. Taqiyyiddin Muhammad bin Muhammad Avhadiyning ushbu asari qolgan tazkiranavislar uchun boy manba vazifasini o'tagan. Masalan, Vali Dog'istoni “Riyoziy shuaro” tazkirasida “Arafot ul-oshiqin” kitobidan keng foydalangan. Ko'pgina olimlar “Arafot ul-oshiqin” asarini baytlar soni ko'p bo'lgani, tarixiy ma'lumotlarga boyligi sababli umumiy, bayoz yoki tarixiy tazkiralar sirasiga kiritadilar¹⁴⁷.

“Arafot ul-oshiqin” tazkirasining ikkinchi, ya'ni Shoh (Malik) kutubxonasida saqlanayotgan nusxasida 29 nafar, boshqa nusxalarda esa 22 nafar ayol ijodi sharhlangan¹⁴⁸. Said Ali al-Dovudning “Arafot ul-oshiqin”da shoira ayollar” maqolasida yozilishicha, nomlari unut bo'lgan ko'pgina ijodkor ayollar Taqiyyiddin tomonidan tarix zarvaraqlarida qaytadan gavdalanitirilgan. Quyidagi jadval Said Ali maqolasi asosida tayyorlandi.

4-Jadval. “عرفات العاشقين” (“Arafot ul-oshiqin”) tazkirasida zikr qilingan ayollar

Podshoh Xotun	Jahon Mulk
Jamil	Qoshg'ariy qizi Mutriba
Badriddin Hiloliy qizi	Robiya bint Ka'b
Saida binti Nosir	Oisha Samarqandiy
Fotima Xurosoniy	Mahastiy
Bibi Mehriy Jaloyir	Bibi Otun
Ofoq Jaloyir	Bibi
Turon Shoh	Bibi Hadiya
Bibi Orzu	Saida Begim
Mahastiy	Nihoniy Qoini
Nihoniy	Nihoniy Akbar Obodiy
Nihoniy (Hindistonda yashovchi)	Oysha Samarqandiy
Nisoiy	Co'roxi
Duxtari Solor	Xonzoda Tabriziy

¹⁴⁵ محمود فتوحی. جایگاه عرفات العاشقین در تذکره نویسی فارسی. // گزارش میراث-۵۶، آذر-اسفند، ۱۳۹۲، ص. ۹۱-۹۲

¹⁴⁶ سید علی آل داود. عرفات العاشقین سیری در احوال و آثار موءلف آن. ۵۶-مقاله، ص ۳۴. ۱/۳. نامه فرهنگستان ۱۳۷۴

¹⁴⁷ محمود فتوحی. جایگاه عرفات العاشقین در تذکره نویسی فارسی. // گزارش میراث. ۵۶-۲. آذر-اسفند، ۱۳۹۲، ص. ۹۲-۹۷. Қаранг:

¹⁴⁸ سید علی آل داود. عرفات العاشقین سیری در احوال و آثار موءلف آن. ۵۶-مقاله، ص ۳۴. ۱/۳. نامه فرهنگستان ۱۳۷۴

<https://www.sid.ir/Fa/Journal/ViewPaper.aspx?ID=85337>



Xulosa: “Arafot ul-Oshiqin” tazkirasi fors adabiyoti tarixida o‘ziga xos o‘rin egallagan, 3500 ga yaqin shoir haqida ma’lumot bergan keng qamrovli manbadir. Ayniqsa, ayol shoirlar haqida alohida to‘xtalib o‘tilgani, she’r va hikoyatlar orqali shoirlar hayoti, davr muhitining ifodalangani bu asarni adabiyotshunoslar uchun bebaho manbaga aylantiradi. Asar keyingi tazkiranavislar uchun ham asosiy ilhom manbasi bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1, Oydin, T. (2023). Russian native-maga rahmani: The first female writer of afghanistan and her tadhkirats. Бюллетень науки и практики, 9(4), 621-626.
2. Tuychiyeva, O. (2025). Features of the use of the aorist in the Persian Language. Bulletin of Science and Practice, 11(1), 487-492. (In Russian). <https://doi.org/10.33619/2414-2948/110/57>